

Yangiliklar

Air Products O'zbekistonda

Oktyabr 2021 | TOSHKENT, O'ZBEKISTON

AIR PRODUCTS O'ZBEKISTONDA VODOROD ISHLAB CHIQARISH UCHUN IKKITA KCA ASBOB USKUNALARINI YETKAZISH BO'YICHA SOE SHARTNOMANI IMZOLADI

Farg'ona neftni qayta ishlash zavodi 1959 yilda ishga tushirilgan bo'lib, O'rta Osiyodagi neft sanoatining yirik korxonalaridan biridir. Hozirgi kunda korxonada 60 turdan ortiq bo'lган neft mahsulotlari va yoqilg'i-moylash materiallari ishlab chiqarilmoqda.

Farg'ona neftni qayta ishlash zavodida tasdiqlangan modernizatsiya loyihasiga asosan umumiyoqiymati 300 mln dollarga bahollangan loyiha o'z ichiga mavjud bo'lган obyektlar hamda yangi ishlab chiqarish obyektlarini rekonstrukciya ishlari yo'lga qo'yilganini e'lon qiladi. Modernizatsiya 2020-2023 yillarda qayta ishlash zavodida gidrokreging jarayonini joriy etish va 2023 yilning 1 iyulidan A-1 va TS-1 rusumli aviakerosin ishlab chiqarishni, moylarni, yoqilg'inini qayta ishlash chuqurligini 92% dan oshirish, hamda Yevro-5 dizel yonilg'isini ishlab chiqarishni ko'zda tutadi.



Modernizatsiya loyihasi doirasida Farg'ona neftni qayta ishlash zavodi PK 301 va PK 401 vodorodlarini quvvati 10,000 va 12,000 Mvt ega bo'lган ishlab chiqarish uskunalarini etkazib berishda Air Products ni tanlab, muzokaralar 2020 yilning ohiridan boshlangan bo'lib, 2021 yilning sentyabr oyida shartnoma tuzildi.



Air Products kompaniyasi haqida

Air Products (NYSE:[APD](#)) kompaniyasi sanoat gazlari ishlab chiqarish bo'yicha jahondagi yetakchi kompaniyalardan biridir va u bozorda deyarli 80 yildan beri faoliyat yuritib kelmoqda. Kompaniya faoliyatining asosiy yo'nalishi bo'lib turli sanoat tarmoqlari, jumladan neftni qayta ishlash va neft-kimyo, metallurgiya, elektronika sanoati va oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar ishlab chiqarish sohalari uchun atmosfera va texnologik gazlar hamda tegishli jihozlar ishlab chiqarish hisoblanadi. Air Products kompaniyasi siqilgan taviiy gazni qayta ishlash va tegishli jihozlar ishlab chiqarish texnologiyalarining jahondagi yetakchi yetkazib beruvchisi hamdir. Kompaniya jahondagi eng yirik sanoat gazlari loyihalaridan ayrimlari, jumladan gazlashtirish bo'yicha loyihalarni ishlab chiqadi, loyihalaydi, quradi, ularga egalik qiladi va boshqaradi, bu loyihalar doirasida yuqori darajadagi qo'shilgan qiymatga ega bo'lган elektr energiyasi, yoqilg'i va kimyoviy moddalar ishlab chiqarish uchun tabiiy resurslarni barqaror tarzda sintez-gazga aylantirish, uglerodni tutib olish bo'yicha loyihalar, shuningdek toza, xavfsiz va arzon vodorod energetikasiga global o'tishni qo'llab-quvvatlaydigan uglerodsiz "yashil" vodorodni ishlab chiqarish bo'yicha jahon ko'lqidagi loyihalarni amalga oshiriladi.

2021 moliya yilda 50 dan ortiq mamlakatlarda, operatsiyalar bo'yicha savdo \$10.3 milliardni tashkil etdi, kapitallashuv esa \$65 milliardga yetdi. Air Products kompaniyasida 20 mingdan ortiq iqtidorli, yuqori malakali va o'z ishiga sodiq bo'lган mutaxassislar turli sohalarda ishlab kelmoqdalar. Ularning barchasi muhim maqsad – atrof-muhitni saqlashga hissa qo'shuvchi innovatsion yechimlarni yaratishni amalga oshirish uchun mehnat qiladilar, ekologik texnologiyalarni rivojlantirishga ko'maklashadilar va mijozlarimiz, hamjamiyatlar va butun jahon oldida turgan masalalarni hal qilishga yordam beradilar. Batafsil ma'lumotlar olish uchun [airproducts.com](#) saytiga tashrif buyuring yoki bizni [LinkedIn](#), [Twitter](#), [Facebook](#) yoki [Instagram](#) tarmoqlarida kuzatib boring.



OAV KONTAKTLARI:

Viktoria Filippova
filippv@airproducts.com
+7 (495) 777 03 15

